



## Lexical-semantic and stylistic analysis of theonyms and Islamic concepts in the epic "Yusufbek"

Ramazon UNGBOEV<sup>1</sup>

Karshi State University

### ARTICLE INFO

#### Article history:

Received February 2025

Received in revised form

10 March 2025

Accepted 25 March 2025

Available online

25 April 2025

#### Keywords:

Onomastics,  
theonym,  
folk epic,  
lexico-semantic,  
linguocultural,  
folklore,  
religious-situational.

### ABSTRACT

This article presents a lexico-semantic analysis of the theonyms found in the epic "Yusufbek" including names such as Muhammad (PBUH), Khidr, the Forty Saints (Qirq Chilton), Hazrat Ali, Azrael, the Kaaba, Paradise, Hell, Islam, Faith, Saints (Mashoyikh), and Sayyid. The study reveals not only the religious meanings of these theonyms but also their role in reflecting the people's beliefs, worldview, and national culture. In conclusion, it is noted that theonyms found in epics are important linguistic units that express folk values and national identity.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss4/S-pp257-261>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## "Yusufbek" dostonidagi teonim va islomiy tushunchalarning leksik-semantik hamda uslubiy tahlili

### ANNOTATSIYA

#### Kalit so'zlar:

onomastika,  
teonim,  
xalq dostoni,  
leksik-semantik,  
lingvomadaniy,  
folklor,  
diniy-stuativ.

Ushbu maqolada "Yusufbek" dostonida uchraydigan Muhammad (s.a.v), Xizir, Qirq Chilton, Hazrat Ali, Azroil, Ka'ba, Jannat, Do'zax, Islom, Iymon, Mashoyiq, Sayyid kabi teonimlar leksik-semantik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida teonimlarning nafaqat diniy mazmuni, balki xalqning e'tiqodi, dunyoqarashi va milliy madaniyatini ifodalashdagi o'рни ham ochib berildi. Xulosa sifatida esa, dostonlarda uchraydigan teonimlar xalqchilik va milliylikni ifodalovchi muhim til birliklari ekani qayd etildi.

<sup>1</sup> Student, Karshi State University. E-mail: [ongboyevramazon2@gmail.com](mailto:ongboyevramazon2@gmail.com)

## Лексико-семантический и стилистический анализ теонимов и исламских понятий в дастане «Юсуфбек»

### АННОТАЦИЯ

#### Ключевые слова:

ономастика,  
теоним,  
народный эпос,  
лексико-семантический,  
лингвокультурологический,  
фольклорный,  
религиозно-стилистический,

В данной статье с лексико-семантической точки зрения проанализированы теонимы, такие как Мухаммад (с.а.в), Хизр, Кырк Чилтон, Хазрат Али, Азраил, Кааба, Джаннат, Дозах, Ислам, Иман, Машаих, Саййид, встречающиеся в дастане «Юсуфбек». В ходе исследования раскрыто не только религиозное содержание теонимов, но и их роль в выражении верований, мировоззрения и национальной культуры народа. В заключение отмечено, что теонимы, встречающиеся в дастанах, являются важными языковыми единицами, отражающими народность и национальную идентичность.

### Kirish

O'zbek tilshunosligida teonimlar chuqur va mukammal o'rganilmagan, shu bois ham bu mavzu o'z tadqiqotchisini kutayotgan masalalardan biri hisoblanadi. E.Begmatov qayd qilishicha, diniy tushuncha va muqaddas dargoh, shuningdek, payg'ambar va avliyolarga berilgan maxsus nomlar teonim deb ataladi. Olimning fikricha, bu tip nomlarga kengroq ma'noda ilohiylashtirilgan predmet va buyumlar nomlarini, diniy mazmun tashuvchi rasm-rusumlar, diniy adabiyotlar nomini ham kiritish mumkin. "O'zbek tili jadvallarda" nomli qo'llanmada ham ilohiy kuchlarga qo'yilgan atoqli otlar teonim deb ko'rsatilgan [2. 37] va Momo Havo va Odam Ato nomlari misol qilib ko'rsatilgan. N.Husanov ham o'z tadqiqotlarida payg'ambarlar ismlari teonimlarning asosiy bo'lagini tashkil etishini ko'rsatadi. N. Uluqov teonim termini "xudo nomlari" degan lug'aviy ma'noni bildirishini qayd etgan holda, teonimlarga xudoning nomlari va sifatlarini ifodalovchi atoqli otlarni kiritish to'g'riroq ekanligini qayd etadi [4.79].

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda Qahhor baxshi Rahimov kuylagan "Yusufbek" dostonidagi teonimlarning leksik-semantik tahliliga yuzlanamiz.

**Asosiy qism. Muhammad a.s.** – real nom.

**Xizir** [a.] – islom rivoyatlaridagi shaxs, taqvodor inson. Xizir "Qur'on"da tilga olinmagan, lekin ulamolar "Qur'on"da Allohning quli nomi bilan tilga olingan shaxsni Xizir deb talqin qiladilar. Xizirga odamlarda Allohga bo'lgan e'tiqodni qo'llab turish uchun Iso, Idris singari abadiy hayot ato etilgan, shu sababli ham Xizir boqiy hayot degan qarashlar mavjud va mardlarning yo'ldoshi va rahnamosi sifatida talqin qilinadi [5. 345].

**"Qirq Chilton"** (yoki ba'zida qirq chilton, qirq chilton avliyolar, Chilton pirlar) – Markaziy Osiyo, ayniqsa, O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston va Afg'oniston hududlarida mashhur bo'lgan afsonaviy avliyolar guruhi hisoblanadi. Ular islom va xalq e'tiqodlari aralashgan, sirli va muqaddas shaxslar sifatida tasvirlanadi.

**"Payg'ambar"** – bu Alloh tomonidan tanlangan, vahiy orqali ilohiy xabar (ya'ni din, shariat, yo'l-yo'riq) olib keluvchi insondir. Payg'ambarlar odamlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatish, yaxshilikka chaqirish, gunohlardan ogohlantirish va Allohning dinini yetkazish vazifasini bajarganlar.

*O'n sakkiz ming olamni  
Yaratgandir xudoyim.*

*Yaxshilar yo'ldosh bo'lsin  
G'am tortmagin ilohim.  
Yolg'izliging bildirma,  
Yig'lab yovni kuldirma,  
G'irni tanho qoldirma,  
**Qirqta chilton** yor bo'lsin.*

***Xizir** bo'lsin yo'ldoshing,  
G'irot bo'lsin sirdoshing  
Hamroh bo'lsin **pir**doshing,  
Yolg'iz **Xudo** yor bo'lsin.  
O'lik bilan uyqu teng,  
Donolarga dunyo keng,  
Ishing ishkal, bo'lsin ong,  
Jumla jahon yor bo'lsin.*

***Rasuli akram Muhammad**,  
Ishingga bersin omad,  
Dushmaning qilsin faryod,*

***Payg'ambarlar** yor bo'lsin [1. 4].*

**Islom** – so'zi “tinchlik”, “bo'ysunish”, “taslim bo'lish” degan ma'nolarni anglatadi. Alloh taoloning yuborgan dini, u orqali inson e'tiqod, ibodat, axloq va jamiyatdagi muomala yo'nalishlarida hayot yo'lini belgilaydi.

*Bir tomchi suvdan bor qilding,  
Meni yaratib zo'r qilding.  
Qirqta chiltonni yor qilding,  
**Islomni** menga nur qilding.  
Sendan boshqa suyarim yo'q,  
G'arib bo'lsam, kuyarim yo'q [1. 59].*

**ALI IBN ABU TOLIB** [a.] (taxm. 600-661, Ko'fa) – eng yuksak, eng ulug', yuqori martabali. Bu nom Muhammad (s.a.v.)ning kuyovi, to'rtinchi xalifaning ismidir. Islomda “xulaf ar-roshidin” (“to'g'ri yo'ldan borgan xalifalar”), dindorlar o'rtasida “choryorlar” deb atalgan dastlabki 4 xalifadan to'rtinchisi [5. 83].

**Pir** – bu **shayx** yoki murshid, ya'ni talabalarga (muridlarga) ruhiy tarbiya beruvchi, ularni Allohga yaqinlashtiruvchi ustozi kamol. Ular **taqvo** yo'lini o'rgatadi, qalbni poklashga yordam beradi.

*Egasiz bo'b qoldi moli,  
Izg'in tortib yig'lar eli,  
Yigit **piri Hazrat Ali**,  
Nurimni senga topshirdim [1. 14].*

**Farishtalar, parilar** (yun. xabarchi, fors-tojik, arabcha). Qur'oni karimda farishtalar haqida quyidagi fikrlar mavjud: “Osmonlardagi va yerdagi barcha mavjudotlar va farishtalar kibr havo qilmagan hollarida yolg'iz Allohga sajda qilurlar” [4.188].

**“Dev”** – bu xalq ertaklari, afsonalar, epik dostonlar va diniy rivoyatlarda uchraydigan g'ayritabiiy, qudratli, ko'pincha yovuz mavjudot sifatida tasvirlanadi. Ular odatda insonlardan katta, qo'rqinchli, sehrli kuchga ega bo'lgan jonzoqlar bo'ladi.

*Arna-soylar to'la **dev-u pariga**,  
Janjal bilan bas kelmaysan bariga,*

*Shunday damda so'yla **Qur'on oyatin**,  
Teng kelmaydi ular Olloh nuriga [1.18].*

**Azroil (a.s)** – bu o'lim farishtasi, ya'ni *Allohning ruhlarni tanadan ajratish (jonni olish) uchun tayinlagan farishtasidir*. Islom e'tiqodiga ko'ra, u to'rt ulug' farishtaning (Jabroil, Mikail, Isrofil, Azroil) biri hisoblanadi.

*Rostin aytsam yuragingda oring yo'q,  
Musurmanson, eshoning yo'q, piring yo'q.  
O'lar bo'lsang, namozoring, go'ring yo'q,  
Yomonlikda sening boshqa tiring yo'q.  
Ranging sovuq, badaningda jiring yo'q,  
Qish chillada tog'laringda qoring yo'q.  
Sulton ketib, dushman qaytding yurtiga,  
**Azroilsan**, basharangda nuring yo'q [1. 56].*

**Do'zax** – bu Allohning buyrug'iga bo'ysunmagan, gunohkor, kofir va zolim insonlar uchun oxiratda tayyorlangan azob joyi, ya'ni jahannamdir.

*Ey Xoldorxon, so'zim tingla,  
Har so'zimdan ma'no angla.  
**Do'zax** bo'lar joying tongla,  
Bojni, Xoldorxon, to'laysan [1. 113].*

**Ka'ba** – bu islom dinidagi eng muqaddas joy, Allohning dunyodagi eng birinchi uyi deb e'tirof etilgan to'rtburchak shaklidagi bino. U Saudiya Arabistonining Makka shahrida, Masjid al-Harom (Masjidul Harom) o'rtasida joylashgan. Musulmonlar uni Qibla sifatida biladi, ya'ni butun dunyo musulmonlari namozda yuzlarini Ka'baga qaratib ibodat qiladi.

**Jannat** – bu Allohga imon keltirgan, yaxshi amallar qilgan bandalar uchun tayyorlangan abadiy rohat joyidir. Islom e'tiqodiga ko'ra, jannat – oxiratda mo'minlarning mukofotidir.

*Ota rozi-xudo rozi,vallomat,  
Ena rozi bo'lsa, rozi Muhammad,  
**Ka'ba** bilan **Jannat** bersa duona,  
Chambil yurtga yetib boray salomat [1. 111].  
Ko'ksida qo'sh anori,  
Boqsam tortar xumori.  
Nuqsoni yo'q yuzida,  
**Sakkiz jannat** ko'zida.  
Qaramay o'tolmaysan,  
Haydasa ketolmaysan.  
G'irotda esa kayvonda,  
Kun ko'radi ayvonda [1. 126].*

**Iymon** – bu qalb bilan Allohga ishonish, til bilan e'tirof qilish, a'zolar bilan esa amalda tasdiqlashdir. Bu ta'rifga ko'ra, imon faqat so'z yoki fikr emas – u qalb, til va amal bilan bo'lishi kerak.

**Mashoyiq** – bu so'z “shayx” (ulug' kishi, donishmand, murabbiy) so'zining ko'plik shaklidir. Ulamolar, tasavvuf yo'lidagi peshvolar va ma'naviy tarbiya bergan mashhur diniy rahnamolarni anglatadi.

**Sayyid** – bu Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning avlodlaridan bo‘lgan kishilarga beriladigan sharaflı unvondır.

*Tog‘-ı toshdan oshayiq,*

*Daryo kabi toshayiq.*

**Iymoni pok mashoyiq,**

*Saqlamoqqa kun keldi.*

*Qalbimda yotar orlar,*

*Zo‘riqqan odam terlar.*

*Avlodi sayyid, pirlar,*

*Qo‘llamoqqa kun keldi [1. 84]*

**Xulosa** sifatida aytish mumkinki, xalq dostonlari matnida qo‘llangan teonimlar dostonlarda milliylik va xalqchilik ruhini aks ettirish bilan birgalikda xalq madaniyati, e‘tiqodi, tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi va o‘ziga xos milliy mentallikni ham ifodalashga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. “Yusufbek”. Aytuvchi: Qahhor baxshi Rahimov, O‘zbekiston xalq baxshisi. Yozib olib nashrga tayyorlovchilar: Shahnoza Qahhorova, f.f.n., dotsent, Doston Abatov, f.f.f.d., v.b. dotsent. – Qarshi, – 2025.
2. Nurmonov A., Rasulov R., “O‘zbek tili jadvallarda”. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993.
3. Uluqov N. “Ekzotik leksika”. – Toshkent: Usmon Nosir media, 2021.
4. Qur‘oni karim. – Toshkent: Cho‘lpon, 1992.
5. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: «ЎзМЭ» Давлат илмий нашриёти, 2001.
6. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013.